

"O'zkimyosanoat" AJ tizimidagi litsenziatlarni prekursorlar muomalasi bilan bog'liq faoliyatining holati

// 10.03.2023

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/uzkimyosanoat-aj-tizimidagi-litsenziatlarni-prekursorlar-muomalasi-bilan-bogliq-faoliyatining-holati>

**“O‘ZKIMYOSANOAT” AJ TIZIMIDAGI
LITSENZIATLARNI PREKURSOGLAR MUOMALASI
BILAN BOG‘LIQ FAOLIYATINING HOLATI**

uzkimyosanoat uzkimyosanoat.uz (+99878) 140-74-26

“O‘zkimyosanoat” AJ
MATBUOT XIZMATI

2023-yilning 10-mart kuni “O‘zkimyosanoat” AJ tashabbusi bilan Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi malakali mutaxassislar tomonidan Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar va prekursorlar to‘g‘risidagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro Konvensiyasi, O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan Qonun va qarorlar, jumladan, prekursorlarni ishlab chiqarish, tayyorlash va realizatsiya qilishi ustidan nazorat mexanizmlarini kuchaytirish, normativ-huquqiy hujjatlarning mazmuni, prekursorlarni saqlashga doir muhim texnik talablar va boshqalar bo‘yicha “O‘zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalarini mas‘ul xodimlari uchun videokonferensaloqa orqali o‘quv mashg‘uloti o‘tkazildi. Unda ishtirokchilarga soha mutaxassislar tomonidan mavzu bo‘yicha batafsil ma‘lumotlar berildi. Shu bilan birga, o‘quv mashg‘uloti qatnashchilari o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.